JRHUNR

ISSN: 2181-0990
DOI: 10.26739/2181-0990
Impact Factor: 5.878

JOURNAL OF

# REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH



VOLUME 2, ISSUE 1
2021

TADQIQOT.UZ

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Журнал репродуктивного здоровья и уро-нефрологических исследований

# JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH

Главный редактор: Б.Б. НЕГМАДЖАНОВ

Учредитель:

Самаркандский государственный медицинский институт

Tadqiqot.uz

Ежеквартальный научно-практический журнал

ISSN: 2181-0990
DOI: 10.26739/2181-0990

№ 1
2021

**ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**
**JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH**
№1 (2021) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0990-2021-1

**Главный редактор:**
**Chief Editor:**

**Негмаджанов Баходур Болтаевич**
доктор медицинских наук, профессор,
заведующий кафедрой Акушерства и гинекологии №2
Самаркандского Государственного медицинского института

Doctor of Medical Sciences, Professor, Head of the Obstetrics
and Gynecology Department No. 2 of the
Samarkand State Medical Institute

**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**

**Каттаходжаева Махмуда Хамдамовна**
доктор медицинских наук, профессор
Кафедры Акушерства и гинекологии Ташкентского
Государственного стоматологического института

Doctor of Medical Sciences, Professor
Departments of Obstetrics and Gynecology
Tashkent State Dental Institute

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**
**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Луис Альфондо де ла Фуэнте Эрнандес**
профессор, член Европейского общества
репродукции человека и эмбриологии
Prof. Medical Director of the Instituto
Europeo de Fertilidad. (Madrid, Spain)

**Ramašauskaitė Diana**
профессор, руководитель Вильнюсского центра
перинатологии, профессор и руководитель клиники
акушерства и гинекологии при институте клинической
медицины Вильнюсского университета (Prof. Clinic of
Obstetrics and Gynecology Vilnius University Faculty
of Medicine, Latvia)

**Аюпова Фарида Мирзаевна**
доктор медицинских наук, профессор,
заведующая кафедрой Акушерства и гинекологии №1
Ташкентской медицинской академии.

**Зокирова Нодира Исламовна**
доктор медицинских наук, профессор кафедры
акушерства и гинекологии №1, Самаркандского
Государственного медицинского института

**Кадыров Зиёратшо Абдуллоевич**
доктор медицинских наук, профессор заведующий
кафедрой Эндоскопической урологии факультета
непрерывного медицинского образования
медицинского института РУДН.

**Негматуллаева Мастура Нуруллаевна**
доктор медицинских наук, профессор кафедры
акушерства и гинекологии №2, Бухарского
медицинского института.

**Окулов Алексей Борисович**
доктор медицинских наук, профессор кафедры
медицинской репродуктологии и хирургии
Московского государственного
медико-стоматологического университета.

**Махмудова Севара Эркиновна**
ассистент кафедры Акушерства и гинекологии
факультета последипломного образования
Самаркандского Государственного медицинского
института **(ответственный секретарь)**

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:**
**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Boris Chertin**
MD Chairman, Departments of Urology & Pediatric
Urology, Shaare Zedek Medical Center, Clinical Professor in
Surgery/Urology, Faculty of Medicine, Hebrew University,
Jerusalem. (Профессор хирургии/урологии, медецинский
факультета ивритского университета)

**Fisun Vural**
Doçent Bilimleri Üniversitesi, Haydarpaşa
Numune Eğitim ve Araştırma Hastanesi
Kadın Hastalıkları ve Doğum Kliniği İdari
ve Eğitim Sorumlusu. Доцент Университета
естественных наук, учебно-исследовательской
больницы клиники акушерства и гинекологии.

**Melike Betül Öğütmen**
SBÜ Haydarpaşa Numune SUAM Nefroloji
Kliniği idari ve Eğitim Sorumlusu.
Доцент Университета естественных наук,
учебно-исследовательской
больницы клиники нефрологии.

**Аллазов Салах Алазович**
доктор медицинских наук, профессор
кафедры урологии, Самаркандского
Государственного медицинского института

**Ахмеджанова Наргиза Исмаиловна**
доктор медицинских наук, доцент,
заведующая кафедрой №2 педиатрии с
курсом неонатологии, Самаркандского
Государственного медицинского института

**Локшин Вячеслав Нотанович**
доктор медицинских наук, профессор,
член-корр. НАН РК, президент Казахстанской
ассоциации репродуктивной медицины.

**Никольская Ирина Георгиевна**
доктор медицинских наук, профессор
ГБУ МО МОНИАГ.

**Шалина Раиса Ивановна**
доктор медицинских наук, профессор
кафедры акушерства и гинекологии педиатрического
факультета РНИМУ им.Н.И.Пирогова

**Page Maker | Верстка:** Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Телефон: +998 (94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

## ОБЗОРНЫЕ СТАТЬИ


**1. Allazov Salah**
UROLOGIYA SOHASIDA ILMIY IZLANISHLAR ETIKASI (ADABIYOTLAR SHARHI)…………………………………..5

**2. Agababyan Larisa, Nasirova Zebiniso, Alieva Malika**
ERTA MENOPAUZA VA TOMIRLAR ENDOTELIYSI FUNKSIYASINING BUZILISHI (ADABIYOTLAR SHARHI)…….11

**3. Agababyan Larisa, Nasirova Zebiniso, Gaybullaeva Zamira**
REHABILITATION AFTER MEDICAL ABORTION (LITERATURE REVIEW)……………………………………….15

**4. Аллазов Салах, Камалов Нодир, Мурадова Раиля**
ЖИТКОСТНЫЕ ОБЪЕМНЫЕ ОБРАЗОВАНИЯ ПОЧЕК (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)……………..……………………...18

**5. Закирова Нодира, Жураева Фариза, Сафарова Лола**
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА КРИОДЕСТРУКЦИИ В ЛЕЧЕНИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ШЕЙКИ МАТКИ В РЕПРОДУКТИВНОМ ВОЗРАСТЕ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)…………………………………………………………...22

**6. Камалов Нодир**
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕДИКАМЕНТОЗНОГО И ОПЕРАТИВНОГО ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СО СТРЕССОВЫМ НЕДЕРЖАНИЕМ МОЧИ У ЖЕНЩИН (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)……………………………………….25

**7. Raximov Nodir, Karimova Mavluda, Shaxanova Shaxnoza, Bobokulov Siroj, Fayziyev Ilhom**
TARQALGAN PROSTATA BEZI SARATONINI ZAMONAVIY DAVOLASH KONSEPSIYASI (ADABIYOT SHARHI)….28

**8. Сафаров Алиаскар, Уринов Мухриддин, Сафарова Лола**
ОСОБЕННОСТИ ПРЕГРАВИДАРНОЙ ПОДГОТОВКИ И ТАКТИКА ВЕДЕНИЯ БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН ПРИ АЛИМЕНТАРНО-КОНСТИТУЦИОНАЛЬНОМ ТИПЕ ОЖИРЕНИЯ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)…………………………….33


## ОРИГИНАЛЬНЫЕ СТАТЬИ


**9. Абдуллаева Лола, Каттаходжаева Махмуда, Сафаров Алиаскар, Сулайманова Нодира**
КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ ПРИ БЕРЕМЕННОСТИ, ОСЛОЖНЕННОЙ МНОГОВОДИЕМ……..37

**10. Агабабян Лариса, Донабоева Зарнигор**
НОВЫЙ КОРОНАВИРУС COVID-19 И ПЕРИНАТАЛЬНЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ……………………………………………..42

**11. Агабабян Лариса, Азимова Шахноза**
АКУШЕРСКИЕ КРОВОТЕЧЕНИЯ КАК ВЕДУЩАЯ ПРИЧИНА МАТЕРИНСКОЙ СМЕРТНОСТИ В ТРУДАХ АКАДЕМИКА И.З. ЗАКИРОВА……………………………………………………………………………….46

**12. Аллазов Салах, Камалов Нодир**
УШИВАНИЕ ВНУТРИБРЮШИННОГО РАЗРЫВА МОЧЕВОГО ПУЗЫРЯ……………………………………49

**13. Raximov Nodir, Aslanova Lobar, Davronov Eshboy, Mirzakulov Bunyodjon**
BUYRAK SARATONINI TARQALISH DARAJASINI BAXOLASHDA NOINVAZIV VIZUALIZASIYA USULLARINI DIAGNOSTIK IMKONIYATLARI……………………………………………………...54

**14. Raximov Nodir, Assatulaev Akmal, Shakhanova Shaknoza, Yusupov Sherali, Fayziev Ilkhom**
TARQALGAN PROSTATA BEZI SARATONINI DAVOLASHDA XIRURGIK KASTRATSIYA O‘RNI……………………...58

JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

**ОБЗОРНЫЕ СТАТЬИ**
УДК 616-082:171

**Allazov Salah Allazovich**
Samarqand davlat tibbiyot instituti,
Urologiya kafedrasi professori
Samarqand, O`zbekiston

## UROLOGIYA SOHASIDA ILMIY IZLANISHLAR ETIKASI (ADABIYOTLAR SHARHI)

**For citation**: Allazov Salakh Allazovich Features of the ethics of scientific research in urology, Journal of reproductive health and uro-nephrology research. 2021, vol. 2, issue 1. pp. 5-10

http://dx.doi.org/10.26739/2181-0990-2021-1-1

**Аллазов Салах Аллазович**
Самаркандский Государственный Медицинский
Институт, Кафедра урологии, профессор
Самарканд, Узбекистан

## ЭТИКА ПРОВЕДЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В УРОЛОГИИ ПОЧЕК (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

**Allazov Salakh Allazovich**
Professor of Department at Samarkand
State medical institute, Department of urology
Samarkand, Uzbekistan

## FEATURES OF THE ETHICS OF SCIENTIFIC RESEARCH IN UROLOGY (LITERATURE REVIEW)

Fan haqidagi normativ-huquqiy hujjatlarda, ilmiy izlanishlar, ulardan kelib chiqqan maqsadlarga qarab fundamental (aniq) va amaliy fanlar hamda ishlab chiqarish guruhlariga bo’linadi.

Bu yunalishlarda bajarilgan ilmiy ishlarning ishonarliligini (“tozaligini”) ta’minlash uchun ilmiy izlanishlarni metodologiyasidan tashqari ularni bajarishda etikaga ham amal qilish zarurligi haqida ba’zi tarixiy, zamonaviy va o’zimizning tajribalarimizdan ba’zi lavhalarni keltirishni lozim topdik.

Mualliflar, kashfiyotchilar, ixtirochilar, ratsionalizatorlar xuquqi qonun bilan himoyalanadi (Vavilov S.I., 1961; Mamiofa I.E., 1971; Skripko V.R., 1974 Lebin B.D. va xamm., 1982;).

Huquqiy ximoyaga ta’alluqli ob’ektlardan eng asosiysi – kashfiyotdir. Kashfiyot oldin ma’lum bo’lmagan, lekin tabiiy olamda mavjud qonuniy xolat bo’lib, u bilim darajasini tubdan o’zgartiradi. Shu bilan birga, foydali qazilma boyliklarni izlab topish, geografik, arxeologik, paleontologik kashfiyotlar, ya’ni ekspeditsion xarakterdagi topilmalar davlat ro’yxatiga kiritilmaydi. Xuddi shuningdek ijtimoiy fanlar sohasidagi yangiliklar ham kashfiyot hisoblanmaydi (Efimov E.N., 1971, 1976). Yangi, tubdan farq qiladigan, xalq xo’jaligi, davlat mudofasi ijtimoiy-madaniy sohalarda ijobiy natija beradigan yangilik kashfiyot sifatida himoyalanadi (Ivich A., 1966). Ratsionalizatorlik takliflari esa muassasalarda, tashkilotlarda yangi va foydali hisoblangan texnik echimlardir (Rassudovskiy V.A., 1975, Praxov B.G., Zenkin N.M, 1977; Ryasensev V.A., Zonkin N.M., 1977). Texnik ijodiyotda qushilgan shaxsiy ulush, birinchilik, prioritet masalalarining axamiyati kattadir. Uning psixologik, etik va yuridik aspektlari mavjud (Komyushko M., 1979). Har qanday kashfiyotning ko’zga ko’rinadigan tomoni – uning yangiligidir. Butun dunyo bo’yicha bu ximoyaga muhtojlik masalasida birinchi kriteriyadir. Ilmiy yangilikka talab hajmi bo’yicha 1) mahalliy; 2) dunyo miqyosida absolyut; va 3) dunyo miqyosida nisbiy bo’lishi mumkin (Mamiofa I.E., 1974).

Mualliflik xuquqi va prioritet bir-biridan ajralmas tushunchalardir (Staxeev L.E., 1972).

Muallif uch xil mualliflik huquqiga ega bo’ladi: chop qilish, ko’paytirish va tarqatish. Bunda yana boshqa uchta tushunchani inobatga olish kerak: 1) mualliflik – muallifning o’zi yaratgan asarning muallifi ekanligi haqida yuridik imkoniyat; 2) mualliflik nomi – o’zining nomi, taxallusi yoki anonim holda asarini chop qilish, ko’paytirish va tarqatish xuquqi; 3) asarning taxlikasizligi – muallifning tirikligida uning ijozatisiz asariga o’zgartirish kiritishga hech kimning haqqi yo’qligiga.

Normativ hujjatlarda muallifdoshlik masalalari ham ko’zda tutilgan. Muallifdoshlik asarga aniq bir ijodiy ulush qo’shgandagina tan olinadi. Muallifga texnik yordam ko’rsatish muallifdoshlik huquqini bermaydi. Fuqarolik ishlari bo’yicha sud kollegiyasi ko’rsatmalari bo’yicha “begonalarning asarlarini to’la va qisman noxuquqiy egallash (plagiat, qalloblik) mualliflik xuquqini buzilishlaridan biri bo’lib, bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi”.

Endi bu yo'nalishda e'tiborga molik ba'zi tarixiy va zamonaviy voqea va hodisalarga to'xtalib o'tsak. Ular fundamental va amaliy fanlar, xususan urologiya faniga ham dahldordir.

Barcha buyuk insonlar kabi Franklin (1-rasm) o'zining nazariyalariga nisbatan muxolifning e'tirozlariga e'tibor bermas va umuman shaxsiy xizmatlarini ximoya ham qilmas, ustiga-ustak hasadgo'ylardan qutilishning yo'lini qilmas edi (Dombrovskiy V., SHimulyan A., 1973). Shu bilan bir davrda differensial hisoblash yo'li bilan dunyo tortishish qonunini Gukka


**1-rasm. Bendjamin Franklin**


**2-rasm. Robert Guk**


**3-rasm. Isaak Nyuton**

(2-rasm) bog'liq bo'lmagan holda o'zi ixtiro qilganini isbot qilish I.Nyutonning (3-rasm) butun umrini yeb bitirdi.

Isaak Nyutonning optika sohasidagi ilmiy izlanishlari ayniqsa janjalli, ko'p bahslarga sabab bo'lgan.

Bu fan bilan u talabalik yillaridan boshlab qiziqqan. Optika sohasiga bag'ishlangan birinchi ilmiy ma'ruzasini 1672 yilda London qirollik jamiyatida qilib, nur va rangning yangi korpuskulyar gipotezasini taklif qilganida uning fikriga R.Guk qarshi chiqib, bu nazariyani o'zi birinchi bo'lib yaratganlik prioritetini talab qilib chiqqan. Ehtiroslarga berilgan Nyuton bu asarini tashlab qo'yib, R.Guk dunyodan o'tgach, bir yildan so'nggina chop ettirgan.

Yana bir buyuk olim A.Eynshteyn (4-rasm) – nisbiylik nazariyasi haqida 1905 yilda maqola chop etadi. Xuddi shu 1905 yili A.Puankare (5-rasm) "Elektron dinamikasi haqida" degan maqola yozadi va 1906 yili chop etadi. U A.Eynshteyndan mustaqil ravishda nisbiylik postulatini yaratadi (BSE, 21 tom, 1975). Albatta Puankare na yozuvchi va na davlat yoki jamoat arbobi, bor-yo'g'i buyuk olim edi. Dunyoning qaysi burchagida "qaysi buyuk olimni bilasiz" deb so'rang, Arximed, Nyuton, Mendeleev, Eynshteyn, javob olasiz, lekin hech kim Puankareni eslamaydi. Garchi fan sohasida Puankarening xizmatlari o'sha olimlardan ortiq-ku kam emas. Bu hammasi Puankarega


**4-rasm. Albert Eynshteyn**


**5-rasm. Anri Puankare**

qolganda avtoritet va prioritet masalalarida tarixiy adolatsizlik tufayli edi. O'z davrida uni genial olim hisoblashgan. Lekin uning bir kashfiyoti bo'yicha nohaqlik haligacha saqlanib qolmoqda. Gap shundaki nisbiylik qonunining birinchi va asosiy yaratuvchisi aynan Puankaredir. A.Eynshteynchi? Eynshteyn ushbu qonunning asoschilaridan biri, hatto mashhur $E=mc^2$ formulasining muallifi bo'lsada, u bu yangi qonunning yagona egasi emas (Smorodinskiy Ya.A., 1978). Puankare nisbiylik prinsiplari bilan 1890 yillardan boshlab shug'ullangan, bir necha kitob chiqargan, ma'ruzalar o'qigan. A.Eynshteyn esa 1905 yilgacha bironta chiqish qilmagan, fizikaning umuman boshqa muammolari bilan shug'ullangan; to'satdan nisbiylik nazariyasi asoslariga bag'ishlangan maqola chop qiladi. Haligacha ilm-fan tarixchilari "Eynshteyn Puankare maqolalarini o'qiganmi?" deb bahs qilishadi. Eynshteynning o'zi "xabarim yo'q edi" deb javob berib kelgan. Faqat qarigan chog'ida vijdon qiynay boshlagan shekilli, shunchaki "Nisbiylik nazariyasini yaratishda Lorens va Puankarelarning xizmatlari bor" deb eslab o'tgan. Bu baxslardan Puankarening o'zi iztirob chekkanmi, yo'qmi endi fol ochishdan foyda yuq, lekin u bag'ri keng bo'lganligi aniq. Hatto o'nlab kashfiyotlarini boshqa ismlar bilan atagan: Betti sonlari, Kleyn guruhi, Puasson turg'unligi va boshq. U bir bor Eynshteynning ishga joylashishi uchun qo'llab-quvvatlab iltimosnoma ham yozgan ekan. Endi bugunga kelib nisbiylik nazariyasining yaratuvchilari Lorens, Puankare va Eynshteyn bo'lib, bu qatorda Puankarening xizmati, ulushi hammasidan ko'proqdir deb arz qilish zarur emasdir, ammo bu haqda eslatib o'tish adolatdan bo'ladi (A.A'zam, 2016).

Endi biologiya soxasida. Darvinizm, organik dunyoning evolyusion materialistik nazariyasi Ch.Darvin dunyoqarashi mahsuli (BSE, 7 tom, 1956). Evolyusion nazariyani ishlab chiqishni 1837 yilda boshlab, Ch.Darvin 1858 yildagina Linney jamiyati yig'ilishida tabiiy turlanish haqida ma'ruza qildi. O'sha yig'ilishda A.Uolles ham ma'ruza o'qidi, uning fikrlari Darvinniki bilan bir xil edi. Ikkala ma'ruza ham jamiyat jurnalida birga chop etildi, lekin Uolles evolyusion nazariyani Darvin o'zidan oldinroq, chuqur va to'laroq ishlab chiqgan deb, ustiga-ustak o'zining 1889 yilda nashr etilgan aossiy ilmiy ishini "Darvinizm" deb atab Darvinning prioritetini ta'kidlaydi (BSE, 44 t., 1956). Darvoqe qizig'i shundaki bu ikki buyuk olimlarning bir xil bag'ri kengligi, ularning tashqi qiyofalarining o'xshashligida ham o'z isbotini topgan (6-rasm).

Ilm-fan sohasidagi bunday bahslar, munozaralar tibbiyotda, xususan urologiyada ham kam emas.

Ma'lumki urologiya amaliyotida keng tarqalgan adenomektomiya operatsiyasi qovuq (Fedorov S.A., 1909; Fuller A.O., 1905; Freyer P.S., 1901), qov orti (Lidskiy A.T., 1923; Millin N., 1945), oraliq (Guthrie G.J., 1834), ishiorektal (Voelker Fr., 1911), to'g'ri ichak (Saposhkov K.P., 1926) orqali amalga oshiriladi (Tkachuk V.N., 2011).

Barchaning fikricha rossiyada adenomektomiya operatsiyasini birinchi bo'lib, S.P. Fedorov (7-rasm) bajargan (1909), uning bosqichlari 8,9,10,11-rasmlarda keltirilgan.




**6-rasm.**

Quyidagi ma'lumotlarning to'liq ishonarligiga kafolat berolmagan holda, ta'kidlash kerakki S.S. Yudinning (12-rasm) takidlashicha bu operatsiyani S.P. Fedorovdan bir yil oldin G.L. Gar "Moszdrav Zaxarino xirurgiya sanatoriyasida amalga oshirgan". Bu haqda "Freyer bo'yicha prostatektomiya" nomi bilan " "N.A. Velyaminov xirurgik arxivida" 1907 yoki 1908 yilda chop etilgan (13-rasm). O'zining nozik iboralari bilan buyuk xirurg S.S. Yudin G.L. Garga quyidagicha ta'rif beradi: "Haddin qo'pol va o'ylab o'tirmay operatsiya qilardi. Lekin haqiqat yuzasidan ta'kidlash kerakki, Gar qiyin va ma'suliyatli operatsiyalarni buyniga olar va muvaffaqqiyat bilan amalga oshirardi". "Velyaminov xirurgik arxivi"ni varaqlab, uning bir nechta chop etgan ishlarini topdim. Uning Freyer usulidagi prostatektomiya, oshqozon raki bo'yicha rezeksiya kabi qator operatsiyalari hisobotini o'qib xayratga qolmay bo'ladimi; bu hisobotlar 1907 yoki 1908 yillarda chop etilgan edi shekilli".



**7-rasm. S.P. Fedorov (1869-1936)**




**8-rasm. Ko'r-ko'rona adenomektomiya (A.A. Pomeransev, 1959)**



**9-rasm. Qovuqni ochish (D.P. CHuxrienko, A.V. Lyulko, 1972)**



**10-rasm. Adenoma tugunini ajratish va olib tashlash (N.A. Lopatkin, I.P. SHevsov, 1986)**



**11-rasm. Adenoma o'rnini tampon qilish yo'li bilan gemostaz**



**12-rasm. S.S. Yudin (1891-1954)**



**13-rasm. N.A. Velyaminov (1855-1920)**



**14-rasm. A.P. Chexov (1860-1904)**

Jurnalning nashr qilinishi redaktor hisobiga bo'lib, bir bor qiyinchilik tug'ilganda A.P. Chexov (14-rasm) ham xomiylik qilgan: "Jurnalni qutqarish uchun men har kimga qulluq qilishga har qanday daxlizda kutishga tayyorman, yaxshi xirurgik jurnalni qutqarish 20 minglab omadli operatsiyalar kabi foydalidir". Jurnalning qaysidir bir tomida Rossiyada birinchi bo'lib bajarilgan qovuq orqali ochiq adenomektomiya haqidagi ilmiy hisoboti ham chop etilgan edi.

Afsuski, operatsiyasining prioritetini G.L. Gar o'ylamagandir ham. Zero, hayotda ko'p bo'lganidek er yuzidagi oddiy insonlar yorug' nurli buyuklar soyasida qolib ketadi. Ko'ngilni to'ldiradigani shuki, kech bo'lsada, bunday tarixiy voqealarga aniqlik kiritib, esdan chiqqan yoki o'z vaqtida e'tibor berilmagan prioritet xolatlarni ilm-fan axliga etkazishdir.

Qo'yida loyiha muallifi darsligiga nisbatan sodir bo'lgan plagiatlik xolatini keltiramiz. 2008 yilda nashr etilgan S.A. Allazovning "Urologiya" darsligi ma'lum bir nashriyot tomonidan 2015 yilda chet el olimlari Pol Bregg va Patritsiya Bregglarning nomida chop etilgan (rasmlarga va nashriyotga yuborilgan xatga qaralsin).

**S.A. Allazov (2008 ) – asl nashr.**




**Pol Bregg, Patritsiya Bregg (2015) – plageat nashr.**









**Ishlatilgan adabiyotlar**


1. Allazov S.A. Urologiya. Darslik. Samarqand, 2008: 132 bet.
2. Allazov S.A. Lagoxilus v urologicheskoy praktike. Samarqand 2015; 38 b.
3. Ayupov O. (tuzuvchi). Dunyo. Siyosat. Jamiyat. 6-nashri.Guliston. 2015;224 b.
4. Bregg Pol, Bregg Patritsiya. Urologiya xastaliklari va davolanish choralari. Nashrga Oqilov SH. tayyorlagan. Toshkent: Sano-Standart, 2015. – 128 b. (Allazov S. Urologiya. Darslik. Samarqand. 2008. 132 b. kitobidan 100% ko’chirilgan plagiat).
5. Diagnosticheskie i lechebnыe standartы v ekstrennoy urologii. Pod red. prof. Allazova S.A. Izd. 2-oe dopolnennoe. Samarkand, 2015. 37 str.
6. Ishmuxamedov R., YUldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2013: 278 bet.
7. Tkachuk V.N. Znamenatelnыe i yubileynыe datы v istorii urologii i pogranichnыx oblastey v 2011 g. Urologiya 2011; 1: 67-68.
8. «Urologiya». Uchebnik pod redaksiey prof. D.YU. Pushkarya. Moskva. M, 2013.
9. YOqubov Sobirjon. Ilohiy muvozanat buzilganda. Adabiyot olim Rahmon Qo’chqor bilan suhbat. Tafakkur 2020; 2: 4-15.
10. Anderson SM, Helberg SB. Chart-based, case-based learning. S D Med 2009. 60(10): 391.
11. Blewett E.L., Kisamore J.L. Evaluation of an interactive, case-basedreview session in teaching medical microbiology. BMC Med Educ 2009; 9:56.
12. Entwistle N. Teaching for Understanding at University. Deepapproaches and distinctive ways of thinking. Basingstoke: Palgrave Macmillan. 2009.
13. Harvard Business School. Available from.2011.
14. Popjay J, Baldwin S, Arai L, Britten N, Petticrew M, Rodgers M, Sowden A. Methods Briefing 22. Narrative synthesis in systematic reviews Available from www.ccsr.ac.uk
15. Queen’s University. Last accessed July 2011. Available from